



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 16-dekabr, № 268 (8611)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI QATAR DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-dekabr kuni Qatar Davlatining Qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha markazi Vasiylik kengashi raisi Ali Muhsin al-Marriy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida rais Ali Muhsinal-Marriy davlatimiz rahbariga Qatar Amiri Tamim bin Hamad Ol Soniyning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Qatar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va investitsiyalar hajmi ortmoqda, yirik

qo'shma loyihalar tayyorlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak muhim xalqaro tadbir — Qatar Amiri tashabbusi bilan ta'sis etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashishda ulkan yutuqlar uchun" global mukofotini topshirish marosimini O'zbekistonda o'tkazishga tayyorgarlikning borishi ko'rib chiqildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, tajriba almashish va qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani tasdiqlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Senat Kengashida

YALPI MAJLIS QACHON O'TKAZILISHI BELGILANDI

Kecha Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisi Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Unda Senatning qirq sakkizinchi yalpi majlisini 2023-yil 18-dekabr kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ta'kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkaziladigan yalpi majlisda qator masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgan.

2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi, "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi, "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Senatlar yalpi majlisida "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi hamda "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ma'muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunlarni ham ko'rib chiqadilar.

Shuningdek, "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi, "Davlat xizmatlari ko'rsatish hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga respublika hududida internet va aloqa qamrovini kengaytirish uchun sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunlar ham muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, yalpi majlis kun tartibi doirasida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlar ham muhokama etiladi. Senatorlar Namangan va Farg'ona viloyatlari hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalar ijrosi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan iqlim o'zgarishining oldini olishda atmosferaga havosini muhofaza qilish hamda hududlarni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat yuzasidan vazirlikning axborotini eshitish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash kabi masalalarni ham ko'rib chiqadilar.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq sakkizinchi yalpi majlisi ochilishi to'g'risida



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq sakkizinchi yalpi majlisi 2023-yil 18-dekabr kuni soat 10.00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi.

Yalpi majlisni videokonferensaloqa tarzida o'tkazish rejalashtirilgan.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

Olivye ORDAS:

MEN BAXTIMNI O'ZBEKISTONDA TOPDIM

Fransiya Respublikasi fuqarosi, ushbu mamlakatning O'zbekistondagi elchixonasi sobiq attachesi, Ichki ishlar vazirligining iste'fodagi komissari — Olivye Ordas bilan suhbatimiz aynan shu e'tirofdan boshlandi. U o'tgan yili o'z oilasi bilan Toshkentga ko'chib kelgan. Mesye Ordas bizning yurtimizni sevadi, olib borilayotgan islohotlardan zavqlanadi va yangi O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonadi. Xo'sh, parijilik diplomat va komissar uchun O'zbekiston qanday qilib ikkinchi vatanga aylandi?

Bizning suhbat

— O'zbekistonga ilk bor 2004-yili kelganman, — deydi suhbatdoshimiz. — To'rt yil davomida Fransiyaning Toshkentdagi elchixonasida ishladim. O'shandayoq mamlakatingizning qadimiy madaniyati, milliy musiqi va xalqingiz mentaliteti, urf-odatlari ko'nglimdan joy olgan edi. Ayniqsa, o'zbek oilasidagi samimiyat, ma'naviy iqlim menga juda

yoqdi. Jamiyatda tarixiy ildizlar va an'analarga, milliy qadriyatlarga hurmat saqlanib qolgan va men buni juda muhim, deb hisoblayman.

O'zbekistonda ko'p do'stlar orttirdim. Va bo'lajak rafiqam Shahnosa bilan ham shu yerdan tanishdim. Uning ota-onasi universitetda faoliyat olib boradi va bizning tanlovimizga hurmat bilan munosabatda

bo'lishdi. To'yimiz Toshkentda bo'lib o'tdi. 2008-yili egizak o'g'illarimiz dunyoga keldi.

Keyinchalik Parijga ko'chib ketdik va u yerda o'n yildan ko'proq yashadik. 2021-yili IIV xodimi sifatida nafaqaga chiqdim. O'zbekiston men va oilamiz uchun nihoyatda qadrdon mamlakat va shu bois o'tgan yilning avgust oyida bu yerga ko'chib keldik.



ISLOHOTLAR DASTURINING NATIJADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR KO'RIB CHIQUILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-dekabr kuni iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchi Suma Chakrabarti bilan uchrashuv o'tkazdi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturining natijadorligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarning borishi va kelgusi rejalar ko'rib chiqildi. Investitsiya va ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish, xorijdagi yetakchi

kompaniya va moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yirik loyihalarni ilgari surish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi jarayoni va mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rini yuksaltirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI BO'YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-dekabr kuni yoshlar siyosatida amalga oshirilgan ishlar va kelgusi yildagi ustuvor vazifalar bo'yicha hisobot bilan tanishdi.

Bu boradagi chora-tadbirlar 7 ta yo'nalishda amalga oshirildi. Davlatning alohida e'tiboriga muhtoj 396 ming nafar yosh mutasaddi rahbarlarga birkittirilib, ular bilan individual ishlash orqali 331 mingining hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashildi. Jumladan, 94 ming nafarining bandligi ta'minlandi, 56 mingi kasb-hunarlariga o'qitildi.

"Yoshlar daftari" orqali ko'rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetdi, murojaatlarni ko'rib chiqish muddati esa 30 kundan 5 kungacha qisqardi. Joriy yilda yoshlar yetakchilari tavsiyasi bilan 338 ming nafar yigit-qizga 444 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. Xususan, talabalarining shartnoma mablag'larini to'landi, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarga o'qitish xarajatlari qoplab berildi. Ishsiz yoshlarga mehnat qurollari ajratildi.

Har bir mahallada "Yoshlar bandligi dasturi" amalga oshirilib, joriy yilda 236 ming nafar ishsiz yigit-qiz va 189 ming nafar maktab bitiruvchisining bandligi ta'minlandi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" bu yildan boshlab 4 ta yo'nalishda — mahalla, maktab, professional ta'lim va oliygohlar tizimida o'tkazilib, jami 12 million nafar yosh qamrab olindi. Unda g'olib bo'lgan yoshlarning mahallalarida jami 623 ta sport maydonchasi barpo etildi.

Iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida kechayu-kunduz faoliyat yuritadigan ilk "Kreativ park" foydalanishga topshirildi. "Zakovat" va boshqa intellektual o'yinlarga 2 million nafar yosh jalb qilindi.

Prezidentimizga Navoiy viloyatida barpo etilgan To'dako'l xalqaro shaxmat maktabi to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlangan ushbu maktab yil davomida 1 ming 700 nafar o'g'il-qizni o'qitish va 7,5 ming

nafar yoshni turli tadbirlar bilan qamrab olish imkoniyatiga ega. U yerda jahon va Osiyo chempionatlari, universiada kabi xalqaro musobaqalarni o'tkazish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu maktabga xalqaro grossmeysterlarni olib kelib, o'lis hududlardagi iqtidorli bolalarni ham jalb qilish, ular uchun shaxmat bo'yicha qisqa muddatli oromgohlar tashkil qilish va tegishli sertifikatlar berishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalarni berdi. Shuningdek, u mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablari uchun tajriba va metodika manbai bo'lishi kerakligi, shaxmat darslarini olib borish jarayonini raqamlashtirish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga ham e'tibor qaratildi.

Har bir hudud, vazirlik va idoralar tizimida yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha yondashuv joriy etiladi. Yoshlar yetakchisi tavsiyasi

bilan beriladigan yordam turlari transformatsiya qilinib, asosiy e'tibor ularni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatishga qaratiladi.

Bolalarning ko'nikmalari, qiziqishlari va iste'dodini rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston bolalar tashkilotini tuzish taklifi bildirildi. Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash borasidagi ilmiy-tadqiqot va tahiliy ishlarni takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

"Ibrat farzandlari" loyihasi orqali xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlar sonini 1 million nafargacha, "Mutolaa" dasturi orqali yosh kitobxonlar sonini 1,5 million nafargacha yetkazish choralari ko'riladi. Buning uchun hududlarda qo'shimcha infratuzilma barpo etilib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun yanada keng sharoitlar yaratiladi.

O'ZA.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

IQTISODIY BARQARORLIK VA AHOLI FAROVONLIGINING HUQUQIY KAFOLATI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda deputatlar tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tadbirkorlik subyektlari manfaatidan kelib chiqib, ularga qulaylik yaratish, bolalar huquqlarini kafollashtirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Asosiy soliq stavkalari o'zgarishsiz qoldirilmoqda

Majlisda deputatlar "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdilar.

Mazkur qonun loyihasi bilan tadbirkorlik subyektlari manfaatidan kelib chiqib, ularga qulaylik yaratish maqsadida 2024-yil uchun belgilangan soliq siyosatida asosiy soliq stavkalari — qo'shilgan qiymat solig'i, foyda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad, yuridik shaxslarning mol-mulk, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i, ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliqlar o'zgarishsiz qoldirilmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari

uchun qo'shimcha yengilliklar yaratish maqsadida kameral soliq tekshiruvida tadbirkordan hujjat talab qilish, bino va hududlariga kirish yoki uni idoraga chaqirish taqiqlanmoqda.

Bundan tashqari, soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati 5-yildan 3-yilgacha qisqartirilmoqda, foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlar daromadining chegaraviy miqdori 5 mlrd. so'mdan 10 mlrd. so'mga oshirilmoqda.

Qonun loyihasida soliq solish bazasini kengaytirish, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish, inflyatsiya darajasidan kelib chiqib aksiz solig'i va resurs soliqlarini indeksatsiyalash belgilanmoqda. Shuningdek, resurs soliqlarining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash maqsadida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti, uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabaroma shaklida soliqni to'lash to'g'risida xabaroma yuborish tartibi



Biz va jahon

PARLAMENTLARARO ITTIFOQ BOSH KOTIBI MARTIN CHUNGONGGA "INSON HUQUQLARI HIMOYASI UCHUN" KO'KRK NISHONI TOPSHIRILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75-yilligi tantanalariga bag'ishlangan rasmiy-madaniy tadbirlarda ishtirok etish uchun Shveysariyaga tashrifi doirasida Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chungong bilan uchrashuv o'tkazdi.

Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra, Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chungong 2023-yilda "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan edi. O'zbekistonning do'sti va yaqin hamkori ushbu mukofotga inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun sazovor bo'ldi.

O'zaro muloqot asnosida delegatsiya rahbari — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov ushbu mukofotni tantanal ravishda topshirdi.

Martin Chungong o'zi rahbarlik qilayotgan xalqaro tashkilot faoliyatida, shuningdek, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish va qo'shma tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasida O'zbekiston parlamentining o'ni alohida ekanini ta'kidladi.





Oliyve ORDAS:

MEN BAXTIMNI OʻZBEKISTONDA TOPDIM



Vaqt bu qarorimiz toʻgʻri boʻlganini isbotladi. Uni qabul qilishda Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi munosabatlarning yuqori darajada ekani oʻz soʻzini aytdi, desam, xato boʻlmaydi. Yaʼni shu yerda yashashga azmu shijoati yetgan fransuz uchun diplomatik va siyosiy muhitning qulayligi muhim ahamiyatga ega. Albatta, men oʻz Vatanim — Fransiyanı sevaman. Lekin bizga Oʻzbekistonda yashash maʼqulroq.

— Siz Oʻzbekistonga 14-yildan soʻng qaytdingiz. Bu orada mamlakatimizda katta oʻzgarishlar, keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi. Qaysi oʻzgarishlarni, ayniqsa, ahamiyatli, deb hisoblaysiz?

— Deyarli har bir sohada yangilanish jarayonlari yuz bergan, bu hamma joyda seziladi. Yoʻl-transport sohasi modernizatsiya qilingan, koʻplab zamonaviy binolar qad rostlayapti. Xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq rivojlanmoqda. Masalan, biz Fransiyada oʻrganib qolgan har qanday mahsulotni bu yerdagi supermarketlardan topa olamiz. Ilgari bu muammo edi.

Shuningdek, kuzatishimcha, tibbiyot sohasi jadal rivojlanib boryapti. Bu juda muhim. Negaki, har qaysi yurtda yaxshi yashash uchun kerakli shartlardan biri salomatlik haqida qaygʻurish hamda sifatli tibbiy xizmat mavjudligidir. Biz ikki farzandni oʻstiraypmiz va har qanday sharoitda malakali shifokor maslahatini olish imkoniyati bor. Oʻzbekiston tibbiyoti Fransiyanikidan qolishmaydi, deb bemalol ayta olaman.

Taʼlim sohasi boʻyicha ham shunday deyish mumkin. Bu soha faol modernizatsiya qilinmoqda. Muhimi, Oʻzbekistonda hamisha kuchli va ustuvor hisoblangan jihatlar saqlanib qolyapti. Masalan, matematika va fizika fanlari oʻqitish darajasi yuqori.

Oʻzbekistondagi hayotning judayam ijobiy tomonlaridan biri — bu yerdagi tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik. Men buni IIV tizimida koʻp yil xizmat qilgan mutaxassis sifatida bemalol taʼkidlay olaman. Bir vaqtlar Parijda koʻcha harakati xavfsizligi inspeksiyasini boshqarganman, soʻng koʻchalardagi namoyishlar paytida tartib saqlanishini taʼminlash bilan shugʻullanganman. Bu murakkab ish edi. Shundan keyin shahar koʻchalaridagi tinchlik-xotirjamlikni, ayniqsa, qadrlayman, kishi. Oʻzbekistonda esa bu borada mahalla ham muhim rol oʻynaydi. Bu jamoatchilik tuzilmasi — yaqin qoʻshni boʻlib yashovchi odamlar — joylarda xavfsizlik, osoyishtalikni saqlashga birgalikda harakat qilishadi. Hamma bir-birini taniydi, qoʻllab-quvvatlaydi, muammolarni

maslahatlashib hal etishga harakat qilishadi. Biz ham mahallamizda oʻzimizni xotirjam his etamiz.

Mana shu omillarning barchasi Oʻzbekistondagi kundalik hayot biz uchun juda qulay boʻlishiga xizmat qiladi. Biz mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, diplomatik yutuqlarini kuzatib boramiz. Jamiyatning kundalik hayotidagi ijobiy oʻzgarishlar bizga juda maʼqul. Bu faqat bizning fikrimiz emas, ayni vaqtda Oʻzbekistonda yashab turgan koʻpgina xorijliklar, ekspertlar ham buni tasdiqlashadi.

qaratilgan loyihalar roʻyobga chiqarilmoqda.

Oʻzbekiston koʻplab mamlakatlar va mintaqalar bilan oʻzaro manfaatli sheriklik aloqalarini yoʻlga qoʻygan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning puxta oʻylangan tashqi siyosati, oqilligi, uzoqni koʻra olishi tufayli mamlakatingiz jahonga yuz tutdi, Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻsi va nufuzi ortdi. Men ushbu jarayonda mamlakat va uning



va bagʻrikenglik. Bu yerda turli millat, madaniyat va dinlarning vakillari aholi-yashaydi. Ayni zamonda jahonda yuz berayotgan toʻqnashuvlarni hisobga olsak, Oʻzbekiston xalqining sanab oʻtilgan xislatlari oʻta muhim.

Ishonamanki, kelgusida Oʻzbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo miqyosida yetakchi davlatlardan biri boʻladi. 2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Samarqandda oʻtkazilishi haqidagi yangilik ham buning tasdiqi boʻldi. Sessiya soʻnggi 40-yilda ilk bor tashkilotning Parijdagi qarorgohidan tashqarida boʻlib oʻtadi. Oʻzbek diplomatiyasining bunday yutugʻi Oʻzbekiston rahbarining oqilona va uzoqni koʻzlagan siyosati tufayli amalga oshmoqda. Shuningdek, oʻylashimcha, bunday qaror qabul qilinishiga Fransiya bilan Oʻzbekistonning yaxshi diplomatik munosabatlari, UNESCO bilan keng doiradagi hamkorligi ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

— Sizningcha, Oʻzbekiston hali yana qanday qiyinchiliklar va muammolarni hal etishi kerak?

— Albatta, kamchiliksiz inson boʻlmagani singari kamchiliksiz mamlakat ham boʻlmaydi. Hammasida qandaydir muammolar bor. Oʻzbekistonning ham qandaydir oʻziga xos va yechim talab qiluvchi masalalari mavjud. Ammo ularni hal etib boʻlmaydi, deya olmaymiz. Dunyoda shunday mamlakatlar ham borki, ularda hozircha kundalik hayot yaxshi boʻlsa-da, kelajagi turli sabablarga koʻra mavhum. Ayni davrdagi voqelik nuqtayi nazaridan

Sirasini aytganda, jonajon Fransiyam hayotimda doim muhim oʻrin tutadi. Lekin bugungi kunda bizning oilamiz oʻz umrini faqat betakror yurdi — Oʻzbekiston bilan uygʻun tasavvur qiladi. Biz mamlakatingizning yutuqlari bilan faxrlanamiz. Oʻzimiz ham uning yanada gullab-yashnashiga hissa qoʻshish uchun tayyormiz.

Yuliya LOGVINA
(“Xalq soʻzi”) suhbatlashdi.

Gidroenergetika

Arzon va ekologik toza mikroGES ishga tushirildi

Zamonaviy taraqqiyot yoʻlini tanlagan Oʻzbekistonda keng koʻlamli islohotlar qatorida milliy iqtisodiyotimizning muhim quvvat manbai hisoblangan gidroenergetika tarmogʻi ham izchil rivojlanmoqda.



Aytish joizki, yangi Oʻzbekistonimizda barcha sohada amalga oshirilayotgan jadal hamda keng koʻlamli saʼy-harakatlar qatorida energetika tarmogʻining ajralmas boʻgʻini hisoblangan gidroenergetika sohasida ham islohotlar bosqich-



ma-bosqich olib borilmoqda. Soʻnggi yillarda investitsiyaviy loyihalar asosida yangi gidroelektr stansiyalarini qurish, uzoq yillardan buyon ishlab kelayotgan GESlarni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish ishlari yuqori surʼatlarda amalga oshirilayotir.

Ayonki, Surxondaryo viloyatining gidroenergetik salohiyatini toʻliq ishga solish va bu boradagi ishlarni jadallashtirish borasida bir qancha yirik loyihalar hayotga tatbiq etilayotir. Xususan, Prezidentimiz shu yil noyabr oyida Surxondaryo viloyatiga tashrifi chogʻida Toʻpolang GESida amalga oshirilgan modernizatsiya ishlari hamda “Zarchob-3” GESining qurilishi boshlanishiga start bergan edi.

Kuni kecha Qiziriq tumanidagi Isfara kollektorida “Isfara mikroGES-1”ning ochilish marosimi boʻlib oʻtdi.

Takidlanganidek, mazkur mikroGESning quvvati 230 kVt, oʻrtacha yillik 1 076 000,0 kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Ushbu obyektning foydalanishiga topshirilishi natijasida mahallaby tizim orqali Yangikent mahallasining 460 ta xonadoni elektr energiya

bilan taʼminlanadi, beshta yangi ish oʻrni yaratiladi.

Oʻzbekistonda ilk bor mazkur GESda barcha uskuna mahalliy ishlab chiqarish doirasida toʻliq oʻzimizda tayyorlangan. Tizim tashkiloti hisoblangan “Suvsanoatmash” AJda GES uchun zarur boʻlgan jihozlar ishlab chiqarildi. Asosiysi, arzon hamda ekologik toza elektr energiyasi yetkazib berish taʼminlanayotir.

Loyiha doirasida 60 m. uzunlikdagi kanalda rekonstruksiya ishlari, suv toʻsish inshooti, bosimli havza inshooti qurilishlari, bosimli quvur (50 m.) oʻrnatish, quvvat uzatish liniyasi kabi qurilish-montaj ishlari bajarildi.

Qayd etish kerak, gidroenergetika sohasining taraqqiyoti mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bilan birga yangi GESlar qurilayotgan, modernizatsiya qilinayotgan gidrotexnik inshootlar joylashgan hududlar aholisining turmush farovonligi oshishiga, ishlab chiqarish subyektlarining elektr quvvatlari bilan taʼminlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Rahim SHERQULOV
(“Xalq soʻzi”).

SAKSOVULZORLAR BARPO ETILMOQDA

Qizilqumning injiq tabiatiga sanoqli turdagi dov-daraxt va giyohlargina dosh bersa, ularning ichida eng chidamli saksovul hisoblanadi. Boisi unda suvtalab barglar deyarli yoʻq, bu vazifani uning bir yillik novdalari oʻtaydi. Aynan shu novdalar yordamida bir gektar maydondagi saksovul bir oy mobaynida 70 kub metr kislorod ishlab chiqarish qudratiga ega. Uning namlikkacha yetgan ildizlari orqali esa tegrasidagi ikki kvadrat metr atrofida mavsumiy giyohlar oziqlanadi.

Umummilliy harakat

Saksovulni oʻziga xos biolaboratoriyaga ham qiyoslash mumkin. Uning tanasida jon saqlab koʻpaygan trixogammalar choʻlini bir qator zararli hasharotlardan tozalaydi.

— Saksovul kuchli shamolda gum koʻchishlarini susaytirib, madaniy hudud va

adirklarni uning toʻfonidan asraydi, — deydi Navoiy viloyati Qorakoʻlchilik va yaylov xoʻjaligini rivojlantirish uyushmasi raisi Ulugʻbek Xalilov. — Shuningdek, saksovul choʻl sharoitida chorva ozuqasi ham hisoblanadi. Oqtayb oylarida donni toʻkkan paytlarida yulovdagi qoʻy-qoʻzilar shu

donni yeb oʻzlarini qish oldidan tiklab oladi.

Ana shunday beqiyos xususiyatlarga ega oʻsimlikni asrab-avaylash va koʻpaytirishni hayotning oʻzi taqozo etayotir. Shu bois ushbu yumushga davlat miqyosida eʼtibor qaratilib, Qizilqum shimolidagi Uchquduq tumani hududida ham yashil himoya oʻrmonzorlarini barpo qilish vazifalari belgilangan.

Tumanda tashkil etilgan koʻrgazmali seminar Qizilqumda saksovulzorlarni vujudga keltirishning dolzarb masalalariga bagʻishlanib, uni tabiiy va inson omili bilan bogʻliq nobudgarchiliklardan asrash yuzasidan tavsiyalar berildi.

Temur ESHBOYEV
(“Xalq soʻzi”).



“TADBIRKORLIKNI KOʻPCHILIK TAVAKKALCHILIKKA QURILGAN YUTUQLI OʻYNIDEK TUSHUNADI. LEKIN...”

Yaqinda mamlakatimiz rahbarining Germaniyayaga tashrifi davomida ikki davlat oʻrtasidagi koʻp qirrali munosabatlarni, avvalo, innovatsiya va texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot, muqobil energetika, transport hamda logistika, taʼlim va madaniyat sohalarida rivojlantirishning dolzarb masalalari koʻrib chiqilgan edi.

Shuningdek, Berlin shahrida ishbilarmon doiralari ishtirokida oʻtkazilgan forum ishida Germaniya biznesida Markaziy Osiyo mamlakatlari bozoridagi faoliyatini kengaytirishga qiziqish ortib borayotgani yaqqol namoyon boʻlganini eʼtirof etish joiz.

Darvoqe, bugungi kunda mamlakatimizda yaratib berilayotgan imkoniyatlar sabab Germaniyayaga mahsulot eksport qilib, ushbu davlatning nufuzli kompaniyalarining maxsus sertifikatlariga ega boʻlgan tadbirkorlar safi kengaymoqda. Ulardan biri — qoraqalpogʻistonlik Zamira Xojametovadir. Muxbirimiz uning bugungi faoliyati, kelgusidagi rejalari bilan qiziqdi.

Intilish

— Tadbirkorlikka kirib kelishimga til bilganim, uni yanada rivojlantirishga oʻqituvchilik tajribam katta yordam berdi, — deydi Qoʻngʻir toʻlunidanagi “Kungrad Agro Solodko Sistem” masʼuliyati cheklangan jamiyati raisi Z. Xojametova. — 1992-yildan 2008-yilgacha Nukus davlat pedagogika institutida talabalarga dars berdim. Tadbirkorlik faoliyatimni boshlashdan oldin Janubiy Koreyadan kelgan investorlarga tarjimonlik qila boshladim. Toʻrtta tilni bilganim sababli turli mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish va ularga tarjimonlik qilishga toʻgʻri kelardi.

Xorijlik mehmonlarga nafaqat ularni qiziqitirgan, balki yurtimizdagi islohotlar haqida ham keng maʼlumot berardim. Bu esa

ularni quvontirib, Oʻzbekistonga qiziqishini yanada oshirardi.

— Tadbirkorlikda erishayotgan yutuqlaringiz haqida nimalar deya olasiz?

— Tadbirkorlikni koʻpchilik tavakkalchilikka qurilgan yutuqli oʻyindek tushunadi. Lekin tadbirkorlik oʻyin emas, bu — mehnat. Bu yoʻnalishda qilayotgan mehnataringiz kuyib ketishi yoki katta daromad keltirishi ham mumkin. Shu bois haqiqiy tadbirkor, avvalo, hisob-kitob ishlarida puxta, halol, izlanishdan toʻxtamayotgan, huquqiy savodxon boʻlishi kerak. Yana bir jihati, qilgan mehnatlari zoye ketsa ham, har doim ishni “nol”dan boshlashga tayyor tura oladigan irodaga ega boʻlishi zarur.

Savolingizga keladigan boʻlsam, dastlab

yakka tartibdagi tadbirkorlikni yoʻlga qoʻyib, keyinchalik oʻndan ortiq ishchilar bilan shu yoʻnalishda ish boshlagan edim. Shundan soʻng 2017-yil “Kungrad Agro Solodko Sistem” korxonasini tashkil qildik. Bugungi kunda 185 nafar ishchi-xodim ishlayotgan korxonamiz dunyoning 14 davlatiga mahsulot eksport qiladi. Yiliga 160 tonna qizilmiya ildizini ishlab chiqaramiz.

2018 — 2022-yillarda jamiyatimiz tomonidan 2 mln. AQSH dollari va 312 ming yevro miqdoridagi 4 ming tonna qizilmiya ildizidan qalamchalar, jiyda, qovun qoqi, kunjut va mosh kabi mahsulotlar eksport qilindi. Mahsulotlarimizning asosiy xaridorlari Shveysariya, Singapur, Nigeriya, Vyetnam, Myanma, Germaniya, Polsha,



Xitoy, Pokiston, Afgʻoniston, Hindiston va Janubiy Koreya davlatlaridir.

— Aytinchchi, tadbirkorlik faoliyatingizda Germaniya davlati bilan aloqalar qay darajada?

— Bu borada gapirishdan oldin Prezidentimizning topshiriqlari asosida mamlakatimizning chet davlatlardagi elchilari bizga xaridor topish va boshqa tashkiliy ishlarga koʻmakdosh boʻlganini alohida taʼkidlagan boʻlar edim.

Mana shu ishlar natijasi va mamlakatimizning Germaniyayadagi elchixonasining koʻmagi bilan Germaniya, Shveysariya, Polsha davlatlariga mahsulot eksport qilish imkoniyatlari yaratildi. Shuningdek, mahsulotlarimizga xalqaro sertifikat olish boʻyicha oʻzlarining tavsiyalarini berishdi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarayotgan tovarlarimiz Germaniyaning nufuzli kompaniyalaridan “Bilogan”, “Biokontakt” va “Vorley” kabi xalqaro biologik hamda organik sertifikatlarga, shu bilan birga, “Produc of Uzbekistan, Made in Karakalpakstan” degan brendga ega.

— Brend mahsulotlaringizni tanitish, dunyoning boshqa bozorlariga ham kirib borish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

— Tadbirkor uchun reklama juda zarur. Oʻz nomi va brendiga ega boʻlgan mahsulotni reklama qilishning birmuncha arzon va samarali usullari ham mavjud. Maxsus brendga ega boʻlganimizdan keyin oldindan

oʻylab yurgan bir ishni amalga oshirdik.

Gap shundaki, 2014-yildan buyon Nigeriyayaga qizilmiya ildizini qalamchalarini yuborib kelardik. Hamkorlarimiz bilan tovarlarni kichik hajmdagi qogʻoz qutilarda joʻnatishga kelishib oldik va mahsulotlarimiz tasviri tushirilgan logotip yaratdik. Unga korxonamiz, mahsulot nomi, manzili va aloqa raqamlarimizni ham kiritgan holda 15 kilogramm mahsulot sigʻdirilgan qogʻoz qutilardan bir hissa yopishtirib chiqdik.

Bilasizmi, yukimiz Eron, Singapur, Myanma, xullas, manzilga boraman deguncha, 7 ta davlat hududida qutilar qayta yuklanadi. Ana shu jarayonda mahsulotimizni koʻrishi natijasida keyinchalik Singapur, Vyetnam kabi 5-6 ta davlatlardan yangi xaridorlar topildi.

Demogchimanki, oʻylab va did bilan bajarilgan kichkina ishimiz keng koʻlamli reklama xizmatini bajarib, mahsulotimizni eksport qiladigan davlatlar safi oshishiga sababchi boʻldi.

— Qoraqalpogʻiston sharoitida qizilmiya oʻsimligi, asosan, tabiiy holda oʻsadi. Yildan-yilga ushbu mahsulotning eksport hajmi oshayotgan boʻlsa, bu turdagi oʻsimlikning kamayib ketish xavfi tugʻilmaydimi? Ushbu dorivor giyohni koʻpaytirish va xomashyo jamgʻarmasini boyitish borasida ham toʻxtalib oʻtsangiz?

— Soʻnggi paytlarda tabiiy oʻsadigan qizilmiya oʻsimligini ekish va koʻpaytirish ustida ham ishlayapmiz. Mazkur tadbirlarni boshlaganimizda olimlar fikri va tavsiyalariga

suyanganmiz. Bu borada Qoraqalpogʻ davlat universitetining professor-oʻqituvchilaridan maslahat olib, oʻsimlikni mahalliy usulda yetishtirishni yoʻlga qoʻydik.

Olimlar qizilmiya urugʻini qachon, qayerga va qanday ekish, uni parvarishlashda nimalarga eʼtibor qaratish kerakligi haqida aniq yoʻnalishlar berishgan. Hozirda universitetning Biologiya kafedrasi oʻqituvchilari bilan bu boradagi ishlarimizni davom ettirmoqdamiz.

Yana shuni aytish mumkinki, jamiyatimizga qarashli 284 gektar maydonda qizilmiya ildizini yetishtirish yoʻlga qoʻylgan boʻlsa, 32 gektar maydonni bogʻdorchilikka ajratganmiz.

Albatta, bundan keyin ham korxonamiz faoliyatini yanada kengaytirish ustida ish olib boramiz. Buning uchun barcha imkoniyat va imtiyozlar bor.

Darvoqe, qilayotgan ishlarimiz va erishgan yutuqlarimiz sabab qator mukofotlarga loyiq topilganimiz bizni yangi marralar sari yetaklayapti, desam, mubolagʻa emas. Xususan, 2021-yil Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi tomonidan oʻtkazilgan tanlovda “Eng yaxshi tadbirkor ayol” deb topilgan boʻlsam, oʻtgan yilda “Yil ayoli” tanlovida ikkinchi oʻrinni egalladim.

Joriy yilda esa Prezidentimizning Farmoni bilan “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlanganim hayotimda unutilmas kun boʻlib qoldi. Bu ragʻbat menga katta kuch, shijoat bagʻishladi, desam, ayni haqiqat.

Gʻayrat OTAJONOV
(“Xalq soʻzi”) suhbatlashdi.

HAVO LAYNERLARI SAMARQANDNING TURIZM SALOHİYATINI OSHIRADI

“Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi”, deya ta'rif berilayotgan Samarqandni dunyo ahli azaldan ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazi sifatida yaxshi biladi va bu zaminga intiladi.

Sayyohlar oqimining yildan-yilga ortib borayotgani bois Prezidentimizning bevosita qo'llab-quvvatlashi bilan 2019-yilda dunyoning yirik turistik markazlaridan biri hisoblangan Samarqandda turizm hamda tijorat uchun barcha qulaylikka ega bo'lgan yangi loyihadagi aeroport qurilishiga kirishildi.

Xizmat

Samarqand xalqaro aeroporti shaharning “havo darvozasi” hisoblanadi. Bu yerga tashrif buyurayotgan mehmonlarning ilk taassurotlari aynan mana shu yerdan boshlanadi. Shu bois ushbu majmuadagi bino va inshootlarning arxitekturası, dizayni, xizmat ko'rsatish madaniyati, qolaversa, aeroport hududidagi muhitning Samarqandga xos hamda mos bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi.

Shu ma'noda, Samarqand xalqaro aeroportiga bobomiz Mirzo Ulug'bekning “Ziji jadidi Ko'ragoniy” kitobi sahifalarining ochilgan holatdagi ko'rinishi singdirilgani ham bejiz emas. O'tgan yili Samarqand xalqaro aeroporti to'liq rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi va bu yerda yo'lovchilar hamda kuzatuvchilar uchun barcha zarur sharoit yaratildi.

—Aeroport eng yangi texnologiyalar bilan ta'minlangan, — deydi Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov. — Misol uchun, bagaj sistemasi tez hamda sifatli xizmat ko'rsatish, ro'yxatdan o'tish ustunlariga eng so'nggi texnologiyalar qo'llanilgan. Bu terminalning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, endilikda yo'lovchilar “bojxonachisiz nazorat” tizimi orqali harakatlanishadi.

Guvohi bo'ldikki, yo'lovchilar bojxonachi xizmatiga duch kelishmayapti. Bu tizim rivojlangan davlatlar tajribasidan olingan. Dunyoning sanoqli xalqaro aeroportlarida bunday amaliyotni ko'rishingiz mumkin.

Endilikda yo'lovchi-sayyohlar va kuzatuvchilar uchun aeroport oldigacha shaxsiy va jamoat transportida kelish hamda yaqinlarini aeroport ichidan kuzatib yuborish imkoniyati yaratildi. Qolaversa, Samarqand xalqaro aeroportini mintaqadagi yirik xabga aylantirish maqsadida ochiq osmon rejimi va beshinchi havo erkinligi huquqi joriy etildi.

Buning natijasida 2021 — 2025-yillar davomida yo'lovchilar ko'rsatkichini soatiga 350 dan 600 nafarga oshirish, muntazam aviaqatnovlar ko'rsatkichini haftasiga 280 taga, yo'lovchilar oqimini yiliga 1,5 mln. nafarga yetkazish imkoniyati yaratildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, o'tgan yili Samarqandga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar 1,2 mln. nafarga yetib, turistik xizmatlar eksporti 197,6 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Joriy yil yakuniga qadar esa 2,1 mln. nafar xorijlik jalb qilinib, turizm xizmatlari eksporti 312 mln. AQSH dollariga yetkazilishi rejalashtirilgan. Sayyohlar tashrif buyuradigan xorijiy



davlatlar geografiyasi ham qariyb ikki barobarga oshgani diqqatga sazovordir.

Shu o'rinda Samarqand xalqaro aeroporti haqida kengroq to'xtalib o'tsak. Bu aeroport O'zbekiston aviatsiyasi tarixida davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan birinchi loyihadir. O'tgan yilda yangi terminal ochilgandan so'ng “Air Marakanda” MChJ Samarqand aeroportidagi terminal hududi va samolyotlarga perronda xizmat ko'rsatishni o'z nazoratiga oldi.

O'shandan beri Samarqand viloyati aviatsiya segmentida yangi bosqich boshlandi. Samarqand aeroporti bir qator xalqaro sertifikatlarga ega bo'ldi va xorijiy reytinglarda yuqori o'rinni egalladi, ikki yil ketma-ket Samarqand aeroportining yangi xalqaro terminali Xalqaro aeroportlar reytingi “World Airport Awards” (SKYTRAX) bo'yicha Markaziy Osiyodagi o'nta mintaqaviy yetakchilar qatoridan joy oldi.

O'tgan yili aprelda tashkil etilgan yangi “Air Samarkand” aviakompaniyasi Samarqand aeroportida joylashgan birinchi aviakompaniyaga aylandi. Ushbu aviakompaniya tomonidan Samarqanddan Xaynan, Bali, Seul, Pxuket, Delhi, Kuala-Lumpur, Bangkok, Xoshimin shaharlariga hamda Yevropa yo'nalishlariga

parvozlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Joriy yilning noyabr oyida “Air Samarkand” aviakompaniyasining birinchi “Airbus A330-300” rusumli samolyoti Samarqand xalqaro aeroportiga olib kelindi.

— “Airbus A330-300” — bu dunyoning yetakchi aviakompaniyalari taqdim etadigan zamonaviy va xavfsiz samolyotdir, — deydi “Air Samarkand” aviakompaniyasi bosh direktori Anton Xodjayan. — Unda, hatto eng uzoq yo'nalishlarda ham yo'lovchilar uchun yuqori qulaylik ta'minlanadi. Havo kemasi turistik klassda 277, yo'lovchini va biznes klassda 36, yo'lovchini tashish imkoniga ega. Samolyot 11,5 ming kilometrdan ortiq masofaga to'xtovsiz parvozlarni amalga oshiradi. Ayni paytda dunyoda 1600 ga yaqin bunday samolyotlar muvaffaqiyatli parvoz qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda Samarqand xalqaro aeroporti orqali mamlakatimizdan tashqari Moskva, Sankt-Peterburg, Sochi, Ufa, Samara, Minvodi, Yekaterinburg, Novosibirsk, Qozon, Jidda, Olmaota, Istanbul, Dubay, Abu-Dabi, Boku, Tel-Aviv, Urunchi, Izmir va Kuvayt Siti yo'nalishlariga to'g'ridan-to'g'ri reyslar amalga oshirilmoqda. 2023-2024-yillarda yana Seul,

Sian, Delhi, Sharja, Budapesht, Antaliya, Krasnoyarsk, Maxachqal'a, Irkutsk shaharlariga to'g'ridan-to'g'ri reyslar ochilishi ko'zda tutilgan.

Ko'rilayotgan choralar natijasida Samarqand xalqaro aeroporti dastlabki yarim yillikda xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha o'z rekordini yangiladi. Shu yilning birinchi yarmida aeroport 439 ming 664 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatdi. Bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 121,4 foizga yoki 241 ming 80 yo'lovchiga ko'p. Joriy yilning yanvar — noyabr oylarida 8 mingga yaqin reyslar uddalandi, yo'lovchilar soni esa 900 mingdan ziyodni tashkil etdi.

Yo'lovchilar oqimining ko'payishi yetakchi tashuvchilarning samaradorligini oshirish va yangi sheriklarni jalb qilish bilan bogliq. Ya'ni joriy yilda Samarqand aeroportidan “Jazeera Airways” va “Pobeda” hamda O'zbekistonning yangi mintaqaviy aviakompaniyasi — “SilkAvia” Toshkent, Buxoro va Urganch shaharlariga parvozlarni amalga oshirmoqda.

Umuman olganda, ushbu tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan rejarlar ko'lami bundan-da keng. Maqsad — bu qadim kengta tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko'paytirish, faqat bahor va kuz oylarida emas, balki yil davomida kelishini ta'minlash hamda ularning bu yerda qolish muddatini uzaytirishdan iboratdir.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
 (“Xalq so'zi”).

Obod mahalla

PANDIGONGA ENDI BARCHANING HAVASI KELMOQDA

“Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla” tamoyili asosida Farg'ona viloyatining Rishton tumaniga qarashli chekka hudud — “Pandigon” MFYda keng qamrovli qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borilib, u qisqa fursat mobaynida zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi.

Buborada belgilangan ishlar to'liq yakuniga yetkazilgani munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda viloyat va tuman sektorlari rahbarlari, qo'shni Qirg'iz Respublikasining Qadamjoy, Botken tumanlari hokimlari hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, ko'p yillik tarixga ega va uzoq vaqt davomida e'tibordan chetda qolib ketgan mahallada respublika va viloyat budjeti hisobidan 8,4 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Shu tariqa mahalla infratuzilmasi yaxshilandi hamda aholining yashash sharoiti butunlay o'zgardi. Ezgu maqsad ijobati yo'lida mahalladagi 755 ta xonadon xatlovdan o'tkazilib, aniqlangan muammolar bartaraf etildi hamda ehtiyojmand oilalarga moddiy va ma'naviy ko'mak berildi.

Xususan, Yangihayot, Maktab, Shifokorlar, Toshyo'li, Namuna va Istiqbol ko'chalarining 3 km. qismi asfaltlashtirildi. Shuningdek, 5 ta ko'chaning 3,5 km. qismi shag'allashtirilib, asfaltlash uchun tayyor holatga keltirildi. Toshyo'li ko'chasining 450 metr qismida piyodalar yo'lakchasi barpo etildi.

O'z navbatida, beshta ko'chaga 203 dona beton tayanch ustun o'rnatilib, 6,5 km. zamonaviy elektr kabellari tortildi. Mustaqillik ko'chasiga 250 kVAlı yangi transformator o'rnatilgan bo'lsa, Toshyo'li va Shodlik ko'chalaridagi 2 dona 100 kVAlı transformator joriy ta'mirlandi. Shu bilan birga, 7 ta ko'chaga 7,4 km. ichimlik suvi tarmog'i tortilib, ichimlik suvi qudug'i va minorasi rekonstruksiya qilindi hamda

yangi suv nasosi o'rnatildi. Bundan tashqari, Jamoatchilik markazi, Otalar guzari, tikuvchilik sexi yangidan barpo etildi. Oilaviy shifokor punkti uchun 300 mln. so'm mablag' sarflanib, joriy ta'mirdan chiqarildi hamda kerakli tibbiyot uskunalari bilan jihozlandi.

Tomorqadan samarali foydalanish maqsadida 182 ta xonadonga 45 kilogrammdan ko'p urug'lar taqatilib, to'qsonbosti ekinlari ekilishiga ko'maklashildi. Mahalladagi 675 ta xonadonda obodonlashtirish ishlari olib borildi hamda 15 ming tupdan ziyodroq mevali va manzarali daraxtlar ekildi.

— Ayni jarayonda kam ta'minlangan 11 ta oila xonadonlarida 300 mln. so'mlikdan ko'proq ta'mirlash ishlari bajarildi, — deydi mehnat faxriysi Tursunboy Abdurahmonov. — O'rganishlar davomida aniqlangan 88 nafar ishsizning doimiy bandligi ta'minlandi. Shuningdek, 4 ming 150 fuqaro tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 39 nafariga bepul dori-darmon taqatildi, 6 nafariga order berilib, davolanish uchun shihatqo va salomatlik markazlariga joylashtirildi.

Umuman aytganda, bugungi kunda Pandigonning yangi va zamonaviy qiyofasi keksayu yoshning hayrat va hayajoniga sabab bo'lmoqda. Demak, Pandigon va pandigonliklarga endilikda barchaning havasi kelayotgani ayni haqiqatdir.

Botir MADIYOROV
 (“Xalq so'zi”).

“Vatan taraqqiyotiga mening hissam”

Qarshi shahrida ayni shu nomdagi respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlov

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi tomonidan tashkil etilgan ushbu tanlovda 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan ijodkorlar

“Tasviriy va amaliy san'at”, “Adabiyot va publitsistika” hamda “Milliy maqom va milliy estrada” kabi uchta yo'nalishda bellashdi.

Ularning natijalari har bir yo'nalish bo'yicha tayinlangan hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi.

Yakunda “Adabiyot va publitsistika” yo'nalishida Muborak tumanidagi 34-umumiyy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi Bibigul Adiyeva, “Tasviriy va amaliy san'at” yo'nalishida Kasbi tumanidagi 14-bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi Dilnoza Qilichova, “Milliy maqom va milliy estrada” yo'nalishida esa Qarshi

ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'quvchisi Jasmina Sheraliyeva g'olib, deb topildi.

Tadbirda faol ishtirok etgan hamda turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

Jahongir BOYMURODOV
 (“Xalq so'zi”).

KITOB — TAFAKKURNING TOLMAS QANOTI

Ilm — aql chirog'i, deyilar. U insonni el orasida hurmat-e'tiborga, baxt-saodatga yetkazadi. Ilmli kishiga esa doimiy hamroh va uning ilhomlantiruvchisi, avvalo, kitobdir.

Kitob — avlodlar zanjirini mustahkamlovchi ma'naviy meros. U inson ruhiga ta'sir etib, ma'naviy-axloqiy kamolotga yetaklaydi, aqlini charxlaydi.

Davlatimiz rahbari kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bu borada tegishli farmoyish va qarorlar ham qabul qilindi.

Mushohada

Bugungi globallashtan, ongu qalbga tahdidlar kuchaygan zamonda yoshlar ma'naviyatini, madaniyatini, tafakkurini yuksaltirishda kitobxonlik nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

Kitob — insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbai. Shu bois xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas biladi. Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Inson o'zining fikrlash qobiliyati, ma'naviy dunyosi bilan tirik. Odamni boshga mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma'naviyati hisoblanadi.

Hozirgi yoshlar ko'proq kino, video, televideniye, kompyuterga berilib ketdi. To'g'ri, istalgan yangiligu axborotni bu vositalardan olish mumkin. Biroq hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm qalb va ruhni tarbiyalash nuqtayi nazaridan badiiy asar o'rini bosolmaydi.

Ma'rifatli oilalarda kitobga e'tibor farzandlar tarbiyasida qo'l keladi. Ammo hozirgi kunda “Internet kafe”larni to'ldirgan, ertayuni kech vaqtini har xil kompyuter o'yinlarini o'yinash bilan o'tkazayotgan yoshlarni ko'rib, yoshi ulug'larning, ota-onalarning farzandlariga e'tiborsizligidan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatmayotganidan achinasiz. Bu yoshlar esini taniganidanoq kitobga oshno tutinishganida, oilada bo'sh vaqtni mutolaa bilan o'tkazishga o'rgatilganida balki ular bugun o'ziga, ota-onasiga, xalqimizga foydali ish bilan shug'ullanishayotgan bo'lisharmidi?!

Kitob — bu oftob, bilimlar sarchashmasi.

Uni inson tafakkurining qanotlariga bejiz o'xshatishmagan. U kishi bilimini oshiribog'ina qolmay, ongining, xayol olamining eng quyi puchmoqlarini-da yoritib yuboradi. Tafakkuri, fikr doirası keng ma'rifati kishilar esa jamiyatning chinakam boyligidir.

Aksincha, hayotda ro'y berib turadigan ayrim noxushliklar ildizi esa ma'rifatsizlik, kitob o'qimasligining achchiq mevası. Temirni zang kemirganidek, odamni ham ma'naviyatsizlik mo'r't qiladi. Ma'naviyat esa insonga kitob o'qish orqali yuqadi.

Har qanday yangilik ham bir kun ekkiradi, biroq insoniyatning ming-ming yillar davomida qo'lga kirgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o'zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Inchinun, hozirgi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda kitobdan ko'ra qudratliroq vosita yo'q.

Bugun yurtimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Chunki ertamiz egalari, millatimiz sha'ni, milliy g'ururni yuksaltiruvchi bu — yoshlar. Shu bois kelajagimiz vorislari mavjud shart-sharoitlardan unumli foydalanishga o'rgatishimiz, qalblarida bilimga, halollikka, mehnatga muhabbatni tarbiyalashimiz shart. Ayniqsa, ular vaqtni qadrlashga o'rgansa, oldilariga qo'ygan maqsadlarga, albatta, erishadi. Zero, yoshlik — umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim — o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim tortib ololmaydigan boylik.

Kitob kishilik jamiyatining ma'naviy taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega

bo'lgani qadimdan ma'lum. U insonda go'zallikni anglash, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'ularini rivojlantiradi. O'quvchiga dunyoni anglab olishda ko'mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy, ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo'llarini o'rgatadi.

Kitob o'qigan inson muhoazali, mushohadali bo'lib, boshqalardan o'zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Muomala madaniyati yuksak, yetuk shaxs sifatida hayotda o'z o'rini topa oladi.

Qadimda buyuk shoir va yovuzchilarimiz, olimlarimiz kitobni tafakkur quyoshiga tenglashtirgan. Ular kitobga shu qadar mehr qo'ygan ediki, hatto tunlari sham yorug'ida mutolaa qilganlar. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy hazratlari 7 yoshigacha Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini bir necha bor o'qib chiqqan, buyuk muhaddisimiz Imom al-Buxoriy hazratlari esaolti mingdan ziyod hadislarni yod bilgan. Ammo u davrlarda bizga yaratilgan imkoniyatlarning o'ndan biri ham bo'lmagan. Lekin ular o'z maqsadlari sari intilib, yuksak ma'naviyat sohibiga aylanishgan.

Atoqli adibimiz Oybek ta'rificha, kitob — tafakkurning tolmas qanoti. Shu ma'noda aytish mumkinki, kitob — insonning qalb gavhari, tafakkur xazinasidir. Biz shunga erishishimiz kerakki, farzandlarimiz uchun kitob eng bebaho sovg'a bo'lsin. Shundagina yoshlar biz orzu qilganday, ma'naviy yetuk, teran fikrlay oladigan, katta va kichikka mehribon, Vataniga sodiq, insofli, diyonatli va oliyanob insonlar bo'lib kamol topadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari “Kitob — beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”, deya ta'kidlagan bo'lsa, sohibqiron bobomiz Amir Temur “Kitob — barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir”, deya uqtirgan.

Adabiyotshunos olim Safo Matchonov



Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

ta'kidlaganidek, “Ilmiy asarlar g'afiat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag'allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma'rifati, baxt-saodatli bo'lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir”.

Darhaqiqat, kitob o'zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, insoniyatning ma'rifiy boyliklarini o'quvchi tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg'ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar o'quvchi tomonidan qanchalik chuqur va to'liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiy shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, kitobxon o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib, yomon illatlardan saqlanadi.

Shaxs takomilida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita rolini o'tlaydi. Ota-onaning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko'chib o'tadi, ular shaxsiyatida aks sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat ham inson ma'naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sirasidandir. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o'zidagi bu tuyg'u va fazilatlarini atrofidagilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli

yuqori. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobga o'zgacha mehr ko'rsatadi, bu ma'naviyat xazinasiga tabiiy qiziqish va intilishga olib keladi. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota-onaning tarbiyali bo'lishi, badiiy adabiyotga oshno ekanligi muhim zaruriyat.

Jamiyatda kitobxonlik qay darajada keng omallashtirgan bo'lsa, ziyoli insonlar shunchalik ko'p bo'ladi, o'z navbatida, bu joyda umuminsoniy qadriyatlar barqaror turmush tarziga aylanadi.

Jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan tarbiya maskanlari hamohang, hamfikr bo'lib ish yuritishi maqsadga muvofiq.

Sirasini aytganda, har bir oila, har bir tarbiya maskani va mahalla yoshlar tarbiyasida o'z mas'uliyatini, javobgarlikni his etishi — bugun davr talabi. Zotan, yangi O'zbekistonda, uchinchi Renessans poydevorini bilimli, ma'an barkamol yetuk yoshlar bilangina qurish mumkin. Bunday navqiron avlod, avvalo, kitob bilan do'stlashgan yigit-qizlar ekanı, shubhasiz.

Safiya QALANDAROVA,
O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlar Akademiyasi dotsenti, PhD.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'ktir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarnı yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.05 Topshirildi — 00.45

1 2 3 4 5 6